



FOREIGN EXPERIENCE IN IMPROVING THE CONSTITUTIONAL-LEGAL STATUS OF LOCAL COUNCIL DEPUTY

Elbek Alimovich Nazarov

Senior Lecturer, Urgench State University

Email: elbek0484@umail.uz

Urgench, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: European continental (Romano-Germanic) model, “positive regulation principle”, mandatory, optional (voluntary), Anglo-Saxon model, “negative regulation principle”, “register of competencies”, mixed model, Romano-Germanic models.

Received: 19.09.25

Accepted: 20.09.25

Published: 21.09.25

Abstract: This article emphasizes the importance of studying international experience in reforming public administration systems, exploring its advanced aspects, and substantiating the possibility of implementing it in domestic practice. In this regard, it is important to analyze the organization and activities of local government bodies in foreign countries, identify appropriate governance models in them, and develop proposals for further improving the constitutional and legal status of local council deputies in Uzbekistan, defining their characteristics.

MAHALLIY KENGASH DEPUTATINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY MAQOMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

Elbek Alimovich Nazarov

Urganch davlat universiteti katta o'qituvchisi

Email: elbek0484@umail.uz

Urganch, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Yevropa kontinental (romano-german) modeli, “pozitiv tartibga solish prinsipi”, majburiy, fakultativ (ixtiyoriy), Anglosakson modeli, “negativ tartibga solish prinsipi” “vakolatlar reestri”, Aralash model, romano-german modellari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilishda chet el tajribasini tadqiq etish, uni ilg'or jihatlarini o'rganish va mamlakat amaliyotiga joriy etilishi mumkinligini asoslash muxim ahamiyatga ega ekanligi va shu o'rinda chet el davlatlaridagi mahalliy davlat hokimiyatini tashkil etilishi va faoliyatini tahlil qilish, ulardagi tegishli boshqaruvi modellarini aniqlash va xosliklarini belgilagan holda O'zbekistondagi mahalliy Kengash deputatlarining konstitutsiyaviy-huquqiy

maqomini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalasi ekanligi yoritib berilgan.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВОГО СТАТУСА ДЕПУТАТА МЕСТНОГО КЕНГАША

Эльбек Алимович Назаров

Старший преподаватель Ургенчского
государственного университета

Email: elbek0484@umail.uz

Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Аннотация:
Европейская континентальная (романо-германская) модель, “принцип позитивного регулирования”, факультативная (добровольная), англосаксонская модель, “принцип негативного регулирования” “реестр компетенций”, смешанная модель, романо-германские модели.	В статье подчеркивается важность изучения зарубежного опыта реформирования системы государственного управления, изучения его передовых аспектов и обоснования возможности его внедрения в практику страны. В связи с этим актуальным является анализ организации и деятельности органов местного самоуправления в зарубежных странах, выявление в них соответствующих моделей управления, а также разработка предложений по дальнейшему совершенствованию конституционно-правового статуса депутатов местных Кенгашей в Узбекистане с определением их особенностей.

Kirish. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilishda chet el tajribasini tadqiq etish, uni ilg'or jihatlarini o'rganish va mamlakat amaliyotiga joriy etilishi mumkinligini asoslash muxim ahamiyatga ega. Shu o'rinda chet el davlatlaridagi mahalliy davlat hokimiyatini tashkil etilishi va faoliyatini tahlil qilish, ulardagi tegishli boshqaruvi modellarini aniqlash va xosliklarini belgilagan holda O'zbekistondagi mahalliy Kengash deputatlarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Asosiy qism. O'z navbatida chet el tajribasini o'rganishda davlat hokimiyatining mahalliy vakillik organi a'zosini konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini tahlil qilishda mazkur maqomni mazmun-mohiyatidan kelib chiqish kerak. Bunda konstitutsiyaviy-huquqiy maqom o'z ichiga uchta komponentni qamrab oladi: birinchisi, bu deputatning huquqi va burchlari, ikkinchisi, bu uning faoliyatini kafolatlari, va uchinchisi, bu deputatning javobgarligi.

Shundan kelib chiqib e'tirof etish joizki, keltirilgan bu uchta komponent, o'z navbatida, V.E.Chirkin ta'kidlaganidek, chet el amaliyotida shakllangan va mavjud bo'lgan mahalliy davlat hokimiyati organlarining uch turdagi modelining xosliklariga asoslanadi. Buna birinchi - bu anglosakson model, ikkinchisi – bu kontinental (romano-german) model va uchinchi – xam anglosakson xam kontinental (fransuz) modellarining xoslikklarini o'z ichiga olgan aralash modeli.

Avvalambor e'tirof etish joizki, bu uchala turdagi modellarning birgalikdagi o'xshash belgilari mavjud. Xususan, ular quyidagilardan iborat bo'lmoqda:

birinchidan, mahalliy davlat hokimiyati o'zining vakolatlariga ega bo'ladi;

ikinchidan, vakolatlarni kelib chiqishiga ko'ra, ular majburiy, fakultativ (ixtiyoriy) va davlat tomonidan o'tkazilgan (topshirilgan) turlariga bo'linadi;

uchinchidan, ko'pgina davlatlarning umumiy tendensiyasi mahalliy hokimiyatga mansub bo'lgan kommunal sohasidagi vakolatlarni qisqarib borishi va aksincha majburiy va topshirilgan vakolatlar hajmini kengayib ketishi tomonlama rivojlanmoqda va bu degani mahalliy davlat hokimiyatini umumdavlat mexanizmiga integratsiyalashuvini oshib borayotganligini bildiradi va ularni umumdavlat masalalarni hal etishga jalb etilishining kengayib borishi holatlari mavjudligidan dalolat beradi.

Xorij tajribasidagi mahalliy boshqaruvini tashkil etilishining birinchi sifatida anglosakson modelini keltirish mumkin. Bu model Buyuk Britaniya, AQSh, Avstraliya, Kanada, Yangi Zelandiya, Yamayka, Irlandiya va shu kabi davlatlarda qo'llaniladi. Uni xosliklari shundaki, unga ko'ra davlat hokimiyati organlari faoliyatida "pozitiv tartibga solish prinsipi" qo'llaniladi. Bunda mahalliy davlat hokimiyati vakolatlarining xajmi huquq va vazifalarni batafsil belgilash orqali amalga oshiriladi .

Bu yerda, mahalliy davlat hokimiyatining tizimi har-hil turdagi tashkiliy bo'linmalardan iborat bo'ladi, chunki qonunchilikka ko'ra faqtgina shahar va qishloq xududlari uchun vakolatlarni ajratilishining aniq me'yorlari belginlan bo'ladi.

Mazkur modelda, quyi turuvchi organlarning yuqori turuvchi organlarga to'g'ridan-to'g'ri bo'ysunish tartibi mavjud bo'lmaydi va davlat hokimiyati mahalliy vakillik organlari formal tarzda o'z vakolatlari doirasida avtonom faoliyat yurituvchilar deb tan olinadi. Shuningdek oliy davlat hokimiyatining mahalliy darajadagi vakillari mavjud bo'lmaydi.

Shu tariqa, mahalliy vakillik hokimiyati organlari qatorida bevosita aholi tomonidan bir qator mansabdor shaxslar xam saylanishi mumkin, masalan, mahalliy politsiyaning boshliqlari – sheriflar.

Undan tashqari, anglosakson mamlakatlarida mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan nazorat asosan bilvosita tartibda markaziy vazirliklar, shuningdek sud orqali amalga oshiriladi.

Bunda, mahalliy hokimiyat organlarining anglosakson mamlakatlari siyosiy tizimidagi o'rni va rolini tahlil qilganda, asosiy e'tibor odatda ular davlat mexanizmining ajralmas qismi ekanligiga qaratiladi. Anglosakson modeli an'anaviy ravishda yuqori darajadagi fuqarolik erkinliklari, nisbatan zaif byurokratik apparati bo'lgan mamlakatlarda rivojlangan va mahalliy o'zini o'zi boshqarish mustaqilligining eng yuqori darajasi bilan ajralib turadi.

O'z navbatida anglosakson modelidan farqli o'laroq Yevropa kontinental (romano-german) modeli o'zining xosliklariga ega. Yevropa kontinental modeli hozirgi vaqtda fransuz tilida so'zlashadigan Afrika, lotin Amerikasi va yaqin Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lib, u to'g'ridan-to'g'ri mahalliy boshqaruv va mahalliy o'zini o'zi boshqarishning kombinatsiyasiga asoslangan va quyi darajalar to'g'ridan-to'g'ri yuqori darajalarga bo'ysunadigan klassik ierarxik piramidani ifodalaydi. N.A.Emelyanov ta'kidlaganidek, uning vatani Fransiya bo'lganligi sababli, bu tizim fransuz deb ham ataladi".

Mahalliy boshqarishning Yevropa kontinental modeli to'g'ridan-to'g'ri mahalliy boshqaruv va mahalliy o'zini o'zi boshqarishning kombinatsiyasiga asoslangan. Ushbu tizim birinchi marta Fransiyada paydo bo'lgan. "To'g'ridan-to'g'ri mahalliy boshqaruv va mahalliy o'zini o'zi boshqarishning kombinatsiyasi, ma'lum bir ierarxik piramidaning qurilishi mahalliy boshqaruvning kontinental tizimining asosiy xususiyati hisoblanadi. U Fransiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya, Ispaniya, Portugaliya kabi mamlakatlarida qo'llanilib kelinadi.

Jumladan, Yevropa kontinental modelidagi mahalliy davlat hokimiyatini tashkil etishda "negativ tartibga solish prinsipi" qo'llaniladi. Bunda mahalliy hokimiyat organlari qonun bilan to'g'ridan -to'g'ri ta'qiqlanmagan barcha xarakatlarni amalga oshirish huquqiga egadir.

Bu yerda quyi darajadagi mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimini tashkil etilishi asosan o'hshash xosliklarga ega va bunda xam shaahar xam qishloq aholisi, mazkur hudulardagi aholi miqdori va hududni hajmidan qat'i nazar mahalliy hokimiyat huquqlaridan foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

Bu model bo'yicha ko'proq to'g'ridan-to'g'ri davlat boshqaruvini va o'zini-o'zi boshqaruvini birgalikda olib borilishi xususiyatlari mavjud.

Shu tariqa, ma'lum darajada qo'yi turuvchi organlarni yuqori turuvchi organlarga bo'ysunishi tartibi mavjud.

Joylarda oliy davlat hokimiyatining vakillari amal qilib borish tartibi joriy etiladi.

Shuningdek, mahalliy vakillik hokimiyati organlari barcha darajadagi hududlarda tashkil etilmaydi va hokimiyatni bo'linish tizimi asosida faoliyat olib bormaydi.

Undan tashqari, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining ustidan nazorat xar-xil shakllarda namoyon bo'ladi va keng doiradagi masalalar bo'yicha amalga oshirilib boriladi.

O'z navbatida anglosakson va romano-german modellaridan farqli aralash modeli o'zining xosliklariga ega. Jumladan, aralash model Germaniya, Avstriya, Yaponiya va shu kabi mamlakatlarda kuzatish mumkin. U o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, yevropa-kontinental va anglosakson bilan o'xshashliklarga ega. Bu uni mahalliy boshqaruvning alohida, aralash modeliga ajratish imkonini beradi. Aralash modelning o'ziga xos xususiyati quyi hududiy darajadagi avtonom mahalliy o'zini o'zi boshqarishning yuqori darajadagi davlat boshqaruvi bilan uyg'unligi bilan ifodalanadi.

Shu bilan birga, bugungi kunda davlat va mahalliy boshqaruv o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ikkita asosiy modeli mavjud: anglosakson va kontinental. Rivojlangan demokratik institutlarga ega bo'lgan mamlakatlar uchun mahalliy boshqaruvning ushbu modellarining yaqinlashuvi va boshqaruvni nomarkazlashtirishning kuchayishi, shu jumladan mahalliy hokimiyatning avtonomligini, uning roli va jamoat ishlariga ta'sirini oshirish tendensiyalari keng tarqalgan.

Anglosakson tizimidagi mamlakatlarda mahalliy boshqaruvning mustaqilligi an'anaviy ravishda kontinental huquqiy oila mamlakatlariga qaraganda yuqori bo'lgan. Ammo bu farqlar hozirda yumshatilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda mahalliy hokimiyat organlarining haqiqiy mustaqilligi har doim fuqarolik jamiyatining shakllanishi markazning siyosiy mavqeiga bog'liq bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarga qaraganda kattaroqdir.

Mahalliy boshqarishning va o'zini o'zi boshqarishning turli modellarining tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalliy boshqaruvi organlarining faoliyati va ularning avtonomiyasi zaxiralari ustidan davlat nazorati vositalari juda xilma-xil bo'lishi mumkin va institutsional xususiyatlarga, madaniy va tarixiy omillarga, siyosiy kuchlarning uyg'unligiga va mintaqaviy siyosiy jarayonning rivojlanishiga qarab o'zgaradi.

Yuqoridagi tahlillar asosida e'tirof etish mumkinki, O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati sohasidagi islohotlarning kelajagi mahalliy boshqarishning qaysi konsepsiyasi asos qilib olinishiga bog'liqdir.

Shu bilan birga ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyatini tashkil etishda ko'proq kontinental modeli qo'llanilib kelinmoqda. Buning belgilari shunda namoyon bo'lmoqdaki, mahalliy darajada bir vaqtda mahalliy boshqaruvi va o'zini o'zi boshqaruvi elementlari uyg'unlikda olib borilmoqda. Bunda agarda mahalliy Kengashlar aholi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri tartibda saylanish asosida shakllantirilib kelinayotgan bo'lsa, unda ijro hokimiyati boshlig'i bo'lgan hokim yuqori turuvchi davlat hokimiyati organi tomonidan tayinlanmoqda. Bunday yondashuvni ijobiy baholash mumkin.

Bu yerda O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning ijobiy amaliyoti sifatida shuni alohida qayd etish joizki, mahalliy hokimiyatni takomillashtirishda kontinental modeli elementlariga asta sekinlik bilan anglosakson elementlarini joriy etish tendensiyasi mavjud. Mazkur mazmundagi islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030” Strategiyasi to‘risida”gi farmoniga asoslanadi .

Jumladan, mazkur Strategiyaning “Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish” deb nomlangan 4-bo‘limining 75-bandida “Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning chinakam “ovoziga» aylantirish” maqsadi belgilangan. Bu maqsadga erishish uchun: hokimlarning mahalliy kengashga rahbarlik qilish amaliyotini to‘liq bekor qilib, kengash raisining huquqiy maqomi, asosiy vazifa va funksiyalari hamda javobgarlik doirasini aniq belgilash; mahalliy kengashlar faoliyatida jamoatchilik ishtiroki uchun zarur sharoitlarni yaratish; fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb qilish, ularning faoliyatini bosqichma-bosqich raqamlashtirish; mahalliy kengashlarning 300 dan ortiq funksiyalarini qayta ko‘rib chiqib, o‘ziga xos bo‘lmaganini bekor qilish; mahalliy kengashlar faoliyatiga oid 500 dan ortiq qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish .

Shuningdek, mazkur Strategiyaning 76-bandida mahalliy davlat hokimiyati ijro organlari faoliyatini transformatsiya qilib, hududiy boshqaruvni “aholi manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yish maqsadi belgilangan. Uni ta’minlash uchun quyidagi vazifalar aniq shakllantirilgan:

- viloyat va tuman (shahar) darajasidagi hokimliklar vazifa va funksiyalarining aniq chegarasini belgilash;
- mahalliy ijro hokimiyati organlarini demokratik tamoyillar asosida shakllantirish, ularni muddatidan oldin lavozimidan ozod etishning huquqiy asoslarini yaratish;
- hokimliklarning hududiy ijro organlari shtat birligi va tuzilmalarini belgilashdagi rolini oshirish, hududlarda amalga oshiriladigan vazifalar (funksiyalar) bo‘yicha “vakolatlar reestri”ni shakllantirish;
- hokimliklar va vazirliklar bo‘linmalarining bir-birini takrorlovchi 70 dan ortiq funksiyalarini optimallashtirish.
- hokimliklarga yuklatilgan 500 dan ortiq vazifa orasidan ular faoliyatiga xos bo‘lmaganlarini bekor qilish.
- hokimliklar faoliyatiga oid 500 dan ortiq qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish.

Bunday islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining: birinchidan, 120 va 121-moddalariga ko‘ra mahalliy Kengashga yuqori turuvchi hokimiyat tomonidan tayinlanadigan va bir vaqtda ijro hokimiyati boshlig‘i bo‘lgan hokimni rahbarligi bekor qilinganligi, ikkinchidan, 122-moddasi bo‘yicha mahalliy Kengashning va 123-moddasi bo‘yicha hokimni vakolatlari

ajratilganligi va alohida belgilanganligi borasidagi konstitutsiyaviy normalariga asoslanadi va ularni amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan.

Undan tashqari, mahalliy Kengashlarning mahalliy ijro hokimiyatidan ajratilganligini yana shunda ko'rish mumkinki, 2020 yil 14 sentyabrdagi "Xalq deputatlari Kengashlari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi qonuni bilan mahalliy Kengashlarning tuzilmasida ularning Kotibiyati tashkil etildi. Mazkur kotibiyat mahalliy Kengash deputatlariga yordamchi moddiy-texnikaviy xizmatni amalga oshirib boradi. Ilgari bu xizmat hokimning huzuridagi hokimlik apparati orqali amalga oshirilib kelinardi. Bu vaziyat xam hokimga deputatlar faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazib borish imkonini berardi.

Bu yerda shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda oxirgi yillarda davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi olib borilgan keng qamrovli islohotlar mahalliy vakillik hokimiyati organlarining va ularning a'zolari bo'lgan mahalliy Kengash deputatlarining konstitutsiyaviy-huquqiy holati demokratik andozalar asosida yanada rivojlantirilgan.

Mazkur demokratik islohotlarni negizida mahalliy darajadagi davlat boshqaruvini tashkillashtirishda hokimiyatni bo'linish prinsipini yanada kengroq joriy etish vazifasini xalq etish maqsadi ko'zlandi. Buning natijasida hokimni mahalliy vakillik hokimiyatiga boshchilik qilishi bekor qilinganligi natijasida mahalliy Kengashlar mustaqil o'zini raisini saylash imkoniga ega bo'ldilar.

O'z navbatida, mahalliy darajadagi vakillik va ijro hokimiyatlarini bir biridan bunday ajratilishi, avvalambor, mahalliy Kengashlar deputatlarini ijro hokimiyatidan mustaqil bo'lishiga erishildi va bu bilan ular ijro hokimiyatining ta'siri ostidan chiqarildi. Buning natijasida, deputatlar uchun ularni asosiy vazifasi bo'lgan vakilchilik funksiyasini to'laqonli amalga oshirishlari uchun va mahalliy ijro hokimiyati ustidan o'zining nazoratini kuchaytirishga oid muhim va zarur institutsional va funksional kafolatlarni yaratilishi ta'minlandi.

Natijada, bu yo'nalishdagi demokratik islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Strategiyaning mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining institutsional asoslarini zamon talablariga moslashtirishga oid 3-maqsadidagi "Joylardagi masalalarni hal etishda mahalliy hokimliklarning moliyaviy imkoniyatlarini yanada kengaytirish va har bir vazifa ijrosi, shuningdek sarflanayotgan mablag'lar yuzasidan jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish" borasidagi vazifani bajarilishini ta'minlashga bevosita xizmat qiladi.

Shu bilan birga, I.A.Xamedov va S.Igor bu yo'nalishdagi islohotlarni davom ettirish zarurligi haqida o'z munosabatini bildirib quyidagicha ta'kidlaydi: "Agar islohotning maqsadi

mahalliy kengashlarni joylarda umumdavlat siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul organlar emas, balki hududlar aholisining manfaatlarini ifodalovchi organlar, ya'ni "xalqning haqiqiy ovozi" ta'rifiga va "aholi manfaatlariga xizmat qilish" tamoyiliga javob beradigan munitsipal hokimiyatning vakillik organlariga aylantirish deb hisoblasak, mahalliy boshqaruvni kontinental model bo'yicha isloh qilish yo'li eng maqbul ko'rinadi".

Bu yerda, I.A.Xamedov va S.Igorning fikrlarini qo'llagan holda e'tirof etish mumkinki, kontinental modeli islohotlarni asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ko'zlaydi. Buning mazmun-mohiyatining negizini evolyusion rivojlanish tamoyiliga asoslanish g'oyasi tashkil etadi. Unga ko'ra islohotlarni davlat hokimiyatining rahbarligi ostida amalga oshirilishiga urg'u berilishi, buning natijasida davlat va jamiyat hayotidagi barqarorlikni saqlab borilishi muhitida davlat hokimiyatini bosqichma-bosqichlik yondashuvi asosida nomarkazlashtirish jarayonlari amalga oshirib borilishi ta'minlanib boriladi.

Xulosa. Yuqoridagilardan shuni hulosa qilish mumkinki, mamlakatda demokratik islohotlar natijasida tegishli siyosiy-huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy shart-sharoitlar yaratilgan sari keyingi bosqichiga o'tish uchun zarur kafolatlar yuzaga keltiriladi. Shunga ko'ra islohotlarning keyingi bosqichlarida deputatlarning huquqlari yanada kuchayishi, buning natijasida mahalliy Kengashlarning o'z hududidagi masalalarni xalq etishdagi vakolatlari kengayishi, hokimlarni saylash va faoliyatini nazorat qilib borish imkoniyatlari oshirilishga qaratilgan huquqiy kafolatlar shakllantirilib boriladi.

Buning natijasida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024 yil 2 fevraldagi PF-28-sonli farmonida ko'zda tutilgan "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini "Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim" tamoyili asosida tashkil etish yuzasidan qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish vazifasi og'ishmay hal etilishiga erishib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Чиркин В.Э. Организационные формы местного самоуправления: Россия и зарубежный опыт // Журнал российского права. 1997. № 8. - С. 98
- 2.Козлова Н.Ю. Институты самоуправления в Англии // Институты самоуправления: историко-правовое исследование. - М., 1995. - С. 81.
- 3.Емелянов Н.А. Местное самоуправление: проблемы, поиски, решения. М.; Тула, 2017. - С. 31.
- 4.Медведев Н.П. Местное самоуправление в зарубежных странах (информационный обзор).- М., 2014. - С. 48.
- 5.Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son.
- 6.Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.09.2020 y., 03/20/636/1276-son.

7.Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.

8.Xamedov I.A., Igor S. O'zbekiston mahalliy hokimiyat organlarini isloh qilishning qaysi modelini tanlaydi? 2025 yil 25 mart // <https://www.gazeta.uz/uz/2025/03/27/local-government-reform/>